

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.03.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

KARIMOVA ANORGUL RUZIMOVNA

**DIAMETRI 50 MM BO‘LGAN ZOLDIRLARNI PROKATLASH UCHUN
MO‘LJALLANGAN STANNING YO‘NALTIRUVCHI LINEYKASINI
ISHLAB CHIQISH, PARAMETRLARINI ASOSLASH ORQALI UNING
ISH UNUMDORLIGINI OSHIRISH**

05.02.02 – Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina detallari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническом наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Technical Sciences**

Karimova Anorgul Ruzimovna

Diametri 50 mm bo‘lgan zoldirlarni prokatslash uchun mo‘ljallangan stanning yo‘naltiruvchi lineykasini ishlab chiqish, parametrlarini asoslash orqali uning ish unumdorligini oshirish.....5

Каримова Аноргул Рuzимовна

Разработка направляющей линейки стана, предназначенного для прокатки шаров диаметром 50 мм, повышение производительности за счет обоснования её параметров.....19

Karimova Anorgul Ruzimovna

Development of the linear guide of the ball rolling mill designed for rolling steel grinding balls with a diameter of 50 mm, improvement of its productivity by substantiating its parameters.....35

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....39

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.03.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

KARIMOVA ANORGUL RUZIMOVNA

**DIAMETRI 50 MM BO‘LGAN ZOLDIRLARNI PROKATLASH UCHUN
MO‘LJALLANGAN STANNING YO‘NALTIRUVCHI LINEYKASINI
ISHLAB CHIQISH, PARAMETRLARINI ASOSLASH ORQALI UNING
ISH UNUMDORLIGINI OSHIRISH**

05.02.02 – Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina detallari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.3.PhD/T4884 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdtu.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Shaxobutdinov Rustam Erkinbayevich texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponenlar:	Alimuxamedov Shavkat Pirmuxamedovich texnika fanlari doktori, professor Abdulkarimov Abdusalom texnika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.03.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «05» sentyabr soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent sh., Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel./faks: (99871) 246-46-00/227-10-32, e-mail: tadqiqotchi@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent sh., Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 246-03-41).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 йил «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

K.A. Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

Sh.B. Tashbulatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori (DSc)

A.A. Muxitdinov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dozarbligi va zarurati. Jahonda ruda va ma'danlarni maydalash uchun ishlatiladigan zoldirlarni ishlab chiqarishda ularning yeyilishbardoshlilikini oshirish va zoldirlarni prokatlashda qo'llaniladigan prokatlash valoklarining va zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineyklarining ish unumdorligini oshirish hamda resurstejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, turli diametrdagi zoldirlarni prokatlashda ish unumdorligini oshirish maqsadida, ko'p kirimli vintli kalibrli prokatlash valoklarini kesuvchi kulachoklarni tayyorlash va yo'naltiruvchi lineyklar ishchi qismining konstruksiyasini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada dunyoning bir qator mamlakatlarida zoldirlarni prokatlash usuli bilan ishlab chiqarish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya, Hindiston, Rossiya va Ukraina davlatlarida zoldirlarni prokatlash usuli bilan ishlab chiqarishda qo'llaniladigan ko'p kirimli vintli kalibrli zoldir prokatlash valoklarini tayyorlash va ularga mos bo'lgan yo'naltiruvchi lineyklarining ishchi qismini ishlab chiqish bo'yicha takomillashtirish ishlari amalga oshirilib, ularni ishlab chiqarishda energiya va resurstejamkor texnologiyalarni yaratish bo'yicha keng ko'lamda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Jahonda zamonaviy mashinasozlik sanoatini takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha, ishlab chiqarishning barcha sohalari uchun tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalangan holda zamonaviy hamda tejamkor texnika va texnologiyalarni yaratish hamda ularni ishlab chiqarishda qo'llash, dolzarb ilmiy-amaliy masalalarni yechish va shu bilan bir qatorda fundamental ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, zoldirlarni prokatlash usuli bilan ishlab chiqarishda energiya va resurstejamkorligini ta'minlaydigan texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, zoldirlarni prokatlashda qo'llaniladigan zoldir prokatlash stanidagi alohida maxsus ishchi zvenolarining ish unumdorligini oshirish uchun ularni loyihalash va matematik modellarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlardan hisoblanmoqda. Shuningdek, energiya va resurstejamkor texnika va texnologiyalardan samarali foydalangan holda ularning nazariy asoslarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda ruda va ma'dan konlari mahsulotlarini maydalash va qayta ishlash uchun qo'llaniladigan maydalovchi po'lat zoldirlarni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Bu borada Respublikamizda sanoatni modernizatsiya qilish orqali raqobatbardoshlik, energiya tejash, ekologiya kabi ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda, uskunalari va texnologiyalar samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmonida "... milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori

o'sish sur'atlarini ta'minlash"¹ bo'yicha vazifalar belgilangan. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek, mavjudlarining ish unumdorligini oshirish muhim vazifalardan ekanligini inobatga olgan holda, maydalovchi po'lat zoldirlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan ko'p kirimli vintli kalibrli zoldir prokatlash valoklarini loyihalash va zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineyklarining yangi konstruksiyalarini ishlab chiqishga doir masalalarni o'rganish va uning nazariy usullarini ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamdagi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnikani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi II. "Energetika, energiya va resurstejamkorligi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mexanizmlar va mashinalar nazariyasining barcha sohalarini qamrab olgan nufuzli xalqaro ilmiy tashkilot IFToMM qarorlarida bir qator dolzarb ilmiy yo'nalishlar ko'rsatilgan bo'lib, mashina va mexanizmlar nazariyasining dolzarb masalalarini tadqiq etishga doir bir qator ilmiy yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Zamonaviy mashinasozlik sohasi oldida turgan asosiy muammolardan biri, ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanuvchi olimlar bilan muhandislarning sa'y-harakatlari va izlanishlarini birlashtirishni taqozo qiladi. Bu esa o'z navbatida, texnik tizimlarning ishonchliligini ta'minlash masalalari bo'yicha jiddiy va muhim vazifalarni amalga oshirish bilan birgalikda, mexanizmlar va mashinalarning yuqori texnologiyalar darajasida ishlashi uchun zarur bo'lgan talablarning kuchayishi zaruriyati bilan bog'liq. Bunday vaziyatda yuzaga keladigan ilmiy-texnik muammolar dinamik jarayonlarning xususiyatlarini batafsil o'rganishni, mavjud muammolarning to'g'ri baholanishi metodologik asoslarini ishlab chiqishni va muammolarni hal qilishning nazariy asoslarini yaratishni talab qiladi.

Dunyo olimlari tomonidan prokatlash jarayoniga doir muammolarni o'rganish bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. A.I. Selikov, S.P. Granovskiy, A.A. Gromov, V.I. Yefanov, M.V. Barbarich, M.V. Vasilchikov, A.A. Korolyov, Ye.A. Jukevich-Stosha va boshqa olimlar turli dinamik va texnologik omillarni inobatga olgan holda har xil o'lchamlardagi mahsulotlarni turli prokatlash uslublarini qo'llagan holda ishlab chiqarish uchun bir qator ilmiy izlanishlar olib

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni

borishgan. Muammolarni hal qilishda prokatlash stanidagi mexanizmlarning kinematikasi va dinamikasini modellashtirish bo'yicha masalalarni yechishgan va loyihalash usullarini ishlab chiqishgan. A.I. Selikov, Pater Zbigniew va V.Yu. Rubsovlarning ilmiy ishlarida prokatlash jarayonida qo'llaniladigan lineykalarning haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

Respublikamizda mexanizmlar va mashinalar nazariyasi rivojiga hissa qo'shish maqsadida juda ko'plab olimlar tomonidan mexanizmlar va mashinalar nazariyasining dolzarb va muhim masalalariga doir nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, akademik X.X. Usmonxo'jayev, Sh.U. Rahmatqoriyev, A.A. Rizayev, Sh.P. Alimuxamedov, K.A. Karimov, R.I. Karimov, A.J. Jo'rayev va boshqa olimlar tomonidan mexanizmlar va mashinalar nazariyasining dolzarb va muhim masalalari bo'yicha turli ilmiy muammolarni yechishda juda katta yutuqlarga erishilgan. R.I. Karimov va R.E. Shaxobutdinovlar tomonidan prokatlashda qo'llaniladigan kulachoklarning turli yuklanishlardagi harakatining modellari ishlab chiqilgan hamda nazariy va ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilgan. F.S. Abdullayev sovuqlayin shtamlash texnologik jarayonlarining energiya quvvati parametrlarini hisoblash usullarini ishlab chiqish bo'yicha va R.Mixridinov maxsus yarim tayyor mahsulotlarni vakuumda prokatlash jarayonini tadqiq etish, ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

Zoldir prokatlash stanining muhim elementlaridan hisoblangan prokatlash valoklari va yo'naltiruvchi lineykalari haqidagi nazariy ma'lumotlar ochiq ilmiy manbalarda yetarli darajada ko'rib chiqilmagan. Bunda, muammoni ilmiy nuqtai nazardan tahlil etishda uning nazariy asoslarini ishlab chiqish va yechimlarini aniqlash bilan birga, amaliy sinov tajribalarini o'tkazish orqali tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yo'naltiruvchi lineykalarni o'rganish masalasi prokatlash valoklarini o'rganib chiqmasdan amalda mumkin emas. Shu sababli, yo'naltiruvchi lineykalarning bo'yicha mavjud kamchiliklarni aniqlash va uning umrboqiyiligi muammolarini hal qilish juda muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.

Ushbu dissertatsiya ishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-sonli "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorining ijrosini ta'minlashga hissa qo'shish maqsadida, Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi asosida "O'zmetkombinat" AJ dagi mo'ljallangan loyihalardan biri bo'lgan "Yangi uslub – olti kirimli vintli kalibrlarni qo'llagan holda 7524-2015 DSt bo'yicha Ø50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarni ZPS 80-120 stanida ishlab chiqarishni o'zlashtirish" ("O'zmetkombinat" AJ, 2022-2024 y.) mavzusidagi 6773-01/03-02-02/2022 raqamli xo'jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi maydalovchi po'lat zoldirlarni prokatlashda ish unumdorligini oshirish uchun zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineykasining parametrlarini nazariy jihatdan asoslash, uning ishchi qismi konstruksiyasini ishlab chiqish hamda hisoblash usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ko‘ndalang vintli prokatlash usuli yordamida davriy profillarni olish texnologiyasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish;
- diametri 50 mm bo‘lgan maydalovchi po‘lat zoldirlarni ishlab chiqarish uchun olti kirimli vintli kalibrli zoldir prokatlash valoklari kalibrovkasini ishlab chiqish va valoklarni kesishda profili nazariy asoslangan kulachoklarni tayyorlash;
- zoldir prokatlash stani yo‘naltiruvchi lineykalari parametrlarini nazariy jihatdan asoslash uchun analitik bog‘lanishlarni ishlab chiqish va uning ish unumdorligini oshirish omillarini aniqlash;
- diametri 50 mm bo‘lgan maydalovchi po‘lat zoldirlarni ishlab chiqarish uchun tajriba tadqiqot ishlarini olib borish.

Tadqiqotning obyekti sifatida prokatlash jarayonida qo‘llaniladigan zoldir prokatlash stani yo‘naltiruvchi lineykalari qabul qilingan.

Tadqiqotning predmeti xomashyoning prokatlash o‘qi bo‘yicha harakatini ta‘minlaydigan yo‘naltiruvchi lineykalarni sintez qilishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishidagi masalalarni yechishda, nazariy va amaliy mexanika, mexanizmlar va mashinalar nazariyasi, ariqchalarining markazlari siljigan olti kirimli vintli kalibrli valoklarni kalibrovkalash texnologiyasi usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, sonli hisoblashlarni bajarishda EHMning samarali usullaridan ham keng foydalanilgan. Amaliy natijalarni olish uchun *MathCAD* va *KOMPAS* dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- zoldir prokatlash valoklari kalibrovkasini tavsiflovchi analitik ifodalar valokning kirimlari soni, burilish burchagi va chegaraviy uzunligiga bog‘liq holda ishlab chiqilgan;
- diametri 50 mm bo‘lgan zoldirlarni prokatlovchi olti kirimli vintli kalibrli valoklarni tayyorlash uchun qo‘llaniladigan profili nazariy asoslangan kulachoklarning matematik modellari ishlab chiqilgan;
- ZPS 80-120 stanida diametri 50 mm bo‘lgan zoldirlarni prokatlash maqsadida, yo‘naltiruvchi lineykalarning asosiy geometrik parametrlarini tavsiflovchi analitik ifodalar ishlab chiqilgan;
- zoldir prokatlash stani yo‘naltiruvchi lineykalarni mustahkamlikka hisoblash maqsadida, yo‘naltiruvchi lineykalarga ta‘sir etuvchi kuchlarni ko‘rsatib beruvchi analitik ifodalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- diametri 50 mm bo‘lgan zoldirlarni ishlab chiqarish maqsadida, olti kirimli vintli kalibrli zoldir prokatlash valoklarini qirqishda qo‘llaniladigan kulachoklar tayyorlangan va amaliy tadqiqotlarda foydalanilgan;
- 7524-2015 DSt bo‘yicha diametri 50 mm bo‘lgan maydalovchi po‘lat zoldirlarni prokatlash uchun olti kirimli vintli kalibrli prokatlash valoklari tayyorlangan va amaliy tadqiqotlarda foydalanilgan;
- diametri 50 mm bo‘lgan zoldirlarni prokatlash maqsadida, yo‘naltiruvchi lineykalarni tayyorlangan va amaliy tadqiqotlarda foydalanilgan;

– zoldir prokatlash stani yo‘naltiruvchi lineykasining yangi konstruksiyasini ishlab chiqish bo‘yicha texnik yechimlar olingan va amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarning ishonchliligi ishlab chiqarishga joriy etish va tajriba tadqiqotlari natijasida olingan mahsulotlarning mavjud analoglar bilan solishtirish orqali statistik ishlov berish, natijalarni haqiqiy iqtisodiy samara beruvchi ishlab chiqarishga joriy etish ma‘lumotlariga asoslanadi. Shuningdek, muhim va zaruriy shartlar asosida masalaning asosli va aniq qo‘yilishi, kompyuter hisoblash dasturlari yordamida olingan natijalarning tahlili va olingan natijalarning boshqa mualliflar ishlari natijalariga taqqoslagan holda mos kelganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, zoldir prokatlash stani yo‘naltiruvchi lineyklarining parametrlarini hisoblash nazariyasini ishlab chiqish, yo‘naltiruvchi lineykalarga ta‘sir etuvchi kuchlarni aniqlash va ularni mustahkamlikka hisoblashni ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ariqchalarining markazlari siljigan olti kirimli vintli kalibrli zoldir prokatlash valoklarini ishlab chiqarish texnologiyasining amaliyotga joriy etilishi hamda zoldir prokatlash stani yo‘naltiruvchi lineykasini ishlab chiqishdagi iqtisodiy samaradorligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 7524-2015 DSt bo‘yicha issiqlayin prokatlangan diametri 50 mm po‘lat zoldirlarni ishlab chiqarishda ish unumdorligini oshirishga yo‘naltirilgan diametri 50 mm bo‘lgan zoldirlarni prokatlash uchun mo‘ljallangan stanning yo‘naltiruvchi lineykasini ishlab chiqish, parametrlarini asoslash orqali uning ish unumdorligini oshirish bo‘yicha nazariy va tajribaviy tadqiqotlar asosida:

– olti kirimli zoldir prokatlash valoklarini kesish uchun mo‘ljallangan kulachoklarni tayyorlash texnologiyasi “O‘zmetkombinat” AJ ga joriy etilgan (“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining 13-sentyabr 2024-yildagi 01/03-01/282 - son ma‘lumotnomasi). Texnologiyaning qo‘llanilishi natijasida kulachoklarni tayyorlash tannarxi 1,3-1,4 barabarga kamaygan;

– diametri 50 mm bo‘lgan maydalovchi po‘lat zoldirlarni ishlab chiqarish uchun zoldir prokatlash stanining yo‘naltiruvchi lineyklarini tayyorlash texnologiyasi “O‘zmetkombinat” AJ ga joriy etilgan (“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining 13-sentyabr 2024-yildagi 01/03-01/282 - son ma‘lumotnomasi) Texnologiyaning qo‘llanilishi natijasida yo‘naltiruvchi lineykalarni tayyorlash tannarxi 1,2-1,3 barobarga kamaygan;

– olti kirimli zoldir prokatlash valoklarini tayyorlash texnologiyasi “O‘zmetkombinat” AJ ga joriy etilgan (“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining 13-sentyabr 2024-yildagi 01/03-01/282 - son ma‘lumotnomasi). Texnologiyaning qo‘llanilishi natijasida diametri 50 mm bo‘lgan maydalovchi po‘lat zoldirlarni ishlab chiqarish unumdorligi 15-20 foizga ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning tadqiqot natijalari 18 ta ishlar jumladan, 16 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida

muhokamadan o'tkazilgan. Shuningdek, 2025-yil 17-iyunda Xitoy Xalq Respublikasining Xarbin shahrida o'tkazilgan Xitoy, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari texnika universitetlari olimlari ishtirokidagi "ShHT ning muhandislik iste'dodlarini almashish va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish" mavzusidagi xalqaro konferensiyada keng yoritilgan holda ma'ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 tasi Respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan 1 ta ixtiroga patent berilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.


Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil qiladi.

Dissertatsiya ishining ilmiy jihatlarini yoritishda menga ko'rsatgan yordamlari uchun Ustozim t.f.d., prof. K.A. Karimovga o'z minnatdorligimni bildiraman.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari keltirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Maxsus prokatlash stanlari va ularda qo'llaniladigan lineykalarning tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida ko'ndalang vintli prokatlash usuli yordamida davriy profillarni olish texnologiyasi, prokatlash stani lineykalari va maxsus prokatlash stanlarida qo'llaniladigan yo'naltiruvchi lineyklar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Prokatlash staniga o'rnatiladigan lineykalarning maqsadi va vazifalariga ko'ra, ularga umumiy tavsiflar berilgan (1-rasm). Shuningdek, o'qqa nisbatan simmetrik bo'lgan kichik o'lchamdagi detallarni issiqlayin prokatlash usuli orqali ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan prokatlash valoklari va lineyklar tahlil qilingan.



1 – quyi yo'naltiruvchi lineyka, 2 – o'ng valok, 3 – chap valok
1-rasm. Quyi va yuqori yo'naltiruvchi lineykalarni o'rnatish jarayoni

Maydalovchi po‘lat zoldirlarni ishlab chiqarishda ularga bo‘lgan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, prokatlash staning ish unumdorligini oshirishning eng qulay usuli sifatida, ko‘p kirimli vintli kalibrli zoldir prokatlash valoklarini tayyorlash va ularga mos bo‘lgan yo‘naltiruvchi lineykalarning ishchi qismi konstruksiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Yuqori va quyi yo‘naltiruvchi lineyklar zoldir prokatlash staniga o‘rnatilishi jarayonida ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan muhim shartlardan biri bu ularning prokatlash o‘qiga nisbatan o‘zaro simmetrik joylashishi va ishchi yuzalari parallelligining ta‘minlanishi hisoblanadi. Simmetrik joylashish shartiga asosan, yuqori va quyi yo‘naltiruvchi lineyklar prokatlash o‘qiga nisbatan o‘zaro qarama-qarshi joylashgan bo‘lishi lozim. Ushbu shartlarni inobatga olgan holda, zoldir prokatlash stanlarida qo‘llaniladigan yo‘naltiruvchi lineyklar o‘rganildi va ularning ish unumdorligini oshirish maqsadida, hozirgi kunda mavjud bo‘lgan konstruksiyalardagi kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish omillari aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Diametri 50 mm bo‘lgan maydalovchi po‘lat zoldirlarni ishlab chiqarishda ish unumdorligini oshirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida ZPS 80-120 stanida 7524-2015 DSt bo‘yicha diametri 50 mm bo‘lgan maydalovchi po‘lat zoldirlarni prokatlash maqsadida, ariqchalarining markazlari siljigan olti kirimli vintli kalibrli prokatlash valoklarini kalibrlash texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Ariqchalarining markazlari siljigan vintli kalibrli zoldir prokatlash valoklari tayyorlash uchun maxsus nusxa ko‘chirish moslamasi bilan ta‘minlangan tokarlik vint qirqish dastgohidan foydalaniladi. Bunda, zoldir prokatlash valoklarini loyihalashda kalibrovka hisobi amalga oshiriladi. Kalibrovka hisoblash natijalari zoldirlarning asosiy parametrlariga qo‘yilgan 7524-2015 DSt mos bo‘lishini inobatga olish zarur.

Ushbu tadqiqot ishida diametri 50 mm bo‘lgan maydalovchi po‘lat zoldirlarni issiqlayin prokatlash usuli orqali ishlab chiqarish maqsadida, zoldir prokatlash stani valoklarining kalibrovka hisobi amalga oshirildi. Bunda prokatlash valoklarining asosiy parametrlarini analitik ifodalar orqali aniqlandi.

Hisoblash ishlarini amalga oshirish uchun quyidagi parametrlar berilgan:
 $D_{kalibr} = 52,3\text{ mm}$ – kalibrning diametri, $R_{kalibr} = \frac{D_{kalibr}}{2} = 26,15\text{ mm}$ – kalibrning radiusi,
 $n = 6$ – vintli kalibr ariqchalarining kirimlari soni.

Metallning issiqlikdan kengayish koeffitsiyentini hisobga olgan holda zoldirning dastlabki diametri aniqlanadi:

$$D_{z.d} = \frac{D_{kalibr}}{\eta_{\tau}} = \frac{52,3}{1,013} = 51,6288\text{ mm}, \quad (1)$$

bunda $\eta_{\tau} = 1,013$ – prokatlash vaqtida metallning issiqlikdan kengayish koeffitsiyenti.

Zoldir o‘lchamining radial o‘sish koeffitsiyentini inobatga olgan holda xomashyoning dastlabki diametri aniqlanadi:

$$D_{xomashyo} = \frac{D_{z.d}}{\eta_0} = \frac{51,6288}{1,03} = 50,1251\text{ mm}, \quad (2)$$

bunda $\eta_0 = 1,03$ – prokatlash vaqtida zoldir o‘lchamining radial o‘shish koeffitsiyenti.

Olti kirimli vintli kalibrli prokatlash valoklarini qirqishni amalga oshiradigan dastgoh qadamining qiymatini quyidagi ifodaga muvofiq aniqlanadi:

$$T_{dastgoh} = 2T_M \cdot \frac{z_2}{z_1} = 2 \cdot 80 \cdot \frac{100}{53} = 301,887 \text{ mm/ayl}, \quad (3)$$

bunda $T_M = 80 \text{ mm/ayl}$ – dastgohning metrik qadami, $z_1 = 53$, $z_2 = 100$ – dastgoh gitarasining almashtiriladigan tishli g‘ildiraklarining tishlari soni.


Vintli kalibrning umumiy uzunligini aniqlashda vint chizig‘ini shartli ravishda graduslarda o‘lchaymiz.

Zoldir prokatlash valogi vintli kalibrning umumiy uzunligi quyidagicha aniqlanadi:


$$\varphi_{um.} = \frac{\pi \cdot l_{dastgoh}}{T_{dastgoh}} = \frac{360^\circ \cdot 690}{301,887} \approx 823^\circ, \quad (4)$$

bunda $l_{dastgoh} = 690 \text{ mm}$ – RT117 dastgohi uchun o‘zgaruvchan qadamga ega vintli detallarni qirqish uchun qurilmadagi kulachokning bir marta to‘liq aylanishi uchun mos keladigan kesuvchi asbobning yurish uzunligi.

Yuqorida berilgan parametrlardan foydalanib, ariqchalarining markazlari siljigan olti kirimli vintli kalibrli zoldir prokatlash valoklarining asosiy parametrlarining o‘zgarish qonuniyatlari aniqlandi (2-3-rasmlar).



2-rasm. Prokatlash valogi rebordasi qalinligining o‘zgarishi




3-rasm. Prokatlash o‘qidan valok rebordalarigacha bo‘lgan masofaning o‘zgarishi

Bajarilgan hisoblash ishlari orqali ZPS 80-120 stanida diametri 50 mm bo‘lgan maydalovchi po‘lat zoldirlarni ishlab chiqarish uchun olti kirimli vintli kalibrli prokatlash valoklarining ishchi chizmasi hosil qilindi.

Zoldir prokatlash valogining o‘zgaruvchan qadamga ega vintli kalibrini kulachokli mexanizm o‘rnatilgan maxsus nusxa ko‘chirish qurilmasi bilan ta‘minlangan tokarlik vint qirqish dastgohida amalga oshirildi.

Vintli kalibr har bir turdagi prokatlanayotgan mahsulot uchun o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini



4-rasm. Prokatlash valoklari bilan yo‘naltiruvchi lineyklar orasidagi bog‘lanish sxemasi

inobatga olgan holda, ZPS 80-120 stanida 7524-2015 DSt bo'yicha diametri 50 mm bo'lgan zoldirlarni prokatlovchi olti kirimli valoklarini tayyorlashda qo'llaniladigan profili nazariy asoslangan kulachoklarni loyihalash texnologiyasi ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning “Zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineykasining ish unumdorligini oshirish va uning yangi konstruksiyasini ishlab chiqish” deb nomlangan uchinchi bobida zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineyklarini loyihalash maqsadida, uning asosiy geometrik parametrlari nazariy jihatdan asoslangan va olingan natijalar tahlil qilingan. Qo'yilgan masalaning yechimlari asosida zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineykasining yangi turdagi konstruksiyasini ishlab chiqish imkoniyatlari yaratilgan.

Yo'naltiruvchi lineyklar zoldir prokatlash stanining alohida maxsus zvenolaridan biri bo'lib, prokatlanayotgan xomashyo ishchi qismining harakatini prokatlash o'qi bo'ylab amalga oshirishini ta'minlash va uni prokatlash o'qida saqlab qolish uchun xizmat qiladi

Prokatlanayotgan zoldirning diametriga bog'liq ravishda, zoldir prokatlash stanlari uchun h_1 va h_2

konstruktiv o'lchamlar bir-biridan farq qiladi (4-rasm). Quyi va yuqori yo'naltiruvchi lineyklarining asosiy geometrik parametrlarini aniqlash maqsadida, 5-rasmida keltirilgan yo'naltiruvchi lineyklarining asosiy geometrik parametrlarini aniqlash sxemasidan foydalaniladi.

Yo'naltiruvchi lineykaning o'ng valok tomoniga mos keladigan ishchi qismining qalinligining eng katta va eng kichik qiymatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$(A_1K_1)_{\max} = \frac{a_w}{2} + c_{1\max} - R_{lineyka}, \quad (A_1K_1)_{\min} = \frac{a_w}{2} + c_{1\min} - R_{lineyka}, \quad (5)$$

$$(A_2K_2)_{\max} = \frac{a_w}{2} + c_{2\max} - R_{lineyka}, \quad (A_2K_2)_{\min} = \frac{a_w}{2} + c_{2\min} - R_{lineyka}.$$


c_1 va c_2 siljishlarning qiymatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned} c_{1\max} &= R_{lineyka} - \sqrt{R_{ch.v}^2 - r_{zoldir}^2}, & c_{1\min} &= c_{1\max} - (A_1K_1)_{\max}, \\ c_{2\max} &= R_{lineyka} - \sqrt{R_{o.v}^2 - r_{zoldir}^2}, & c_{2\min} &= c_{2\max} - (A_2K_2)_{\max}. \end{aligned} \quad (6)$$

Yo'naltiruvchi lineyka ishchi qismining qalinligi analitik bog'lanishlar yordamida zoldir va valoklarning radiuslariga bog'liq holda aniqlanadi.

Yo'naltiruvchi lineyka ishchi qismining qalinligi prokatlash o'qidan o'tuvchi vertikal chiziqqa nisbatan b_1 va b_2 qismlariga ajratiladi va ularning qiymatlari quyidagi shartlar asosida aniqlanadi:

$$(A_1K_1)_{\min} < b_1 < (A_1K_1)_{\max}, \quad (A_2K_2)_{\min} < b_2 < (A_2K_2)_{\max}. \quad (7)$$



5-rasm. Yo'naltiruvchi lineyklarining asosiy geometrik parametrlarini aniqlash sxemasi


Yo'naltiruvchi lineyka ishchi qismining b_1 va b_2 qalinligi qiymatini aniqlashda yo'naltiruvchi lineyka ishchi qismi chetki qirrasidan o'ng va chap valoklar rebordalarigacha bo'lgan S_{ch} va S_o masofalarni inobatga olish lozim.

Yo'naltiruvchi lineyka ishchi qismining umumiy qalinligi b ning qiymati quyidagicha aniqlanadi:


$$b = b_1 + b_2 \quad (8)$$

Zoldirning diametriga mos ravishda yo'naltiruvchi lineyklar ishchi qismining qalinligi ham o'zgaradi.

Diametri 50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarni prokatlash maqsadida, quyi va yuqori yo'naltiruvchi lineykalarni loyihalash uchun hisoblash ishlari amalga oshirildi va zaruriy grafiklar olindi (6-7-rasmlar).



6-rasm. Yo'naltiruvchi lineyka ishchi qismi qalinligining prokatlash o'qidan o'tuvchi vertikal chiziqqa nisbatan o'zgarishi



7-rasm. Yo'naltiruvchi lineyka ishchi qismining umumiy qalinligining o'zgarishi

Yuqori sifatli mahsulotlarga bo'lgan talabning doimiy o'sishi va prokatlash stanlarining samaradorligini yanada oshirish, prokatlash stani zvenolarining (jumladan, yo'naltiruvchi lineykalarning) yangi konstruksiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineyklarining yangi konstruksiyasini ishlab chiqish zarurati quyidagi asosiy sabablar bilan bog'liq:

1. Zoldir prokatlash jarayonida yo'naltiruvchi lineykaga doimiy o'zgaruvchan kuchlar ta'siri natijasida uning ishchi yuzasining yeyilishi vujudga keladi (8-rasm). Ushbu jarayonda esa yo'naltiruvchi lineykani almashtirish zarurati tug'iladi va bu esa vaqt sarfining oshishiga olib keladi;



8-rasm. Zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineykasi ishchi yuzasining yeyilishi

2. Yeyilgan yo'naltiruvchi lineykani yangisiga tez-tez almashtirish, yo'naltiruvchi lineykalarni tayyorlashdagi metall sarfining oshishiga olib keladi;




9-rasm. Zoldirlarning bo'yinchalardan uzilmasligi holati

3. Yo'naltiruvchi lineykaning yeyilishi tufayli zoldirlarning bir-
14

biridan ajralmasligi, ya'ni hosil bo'layotgan zoldirlarning bo'yinchalardan uzilmasligi holati sodir bo'ladi (9-rasm). Bu esa zoldir prokatlash stani ish unumdorligining pasayishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan bir qancha sabablar asosida, yo'naltiruvchi lineykaning ish muddatini oshirish va uning ishchi qismini tez almashtirish yo'li bilan texnologik imkoniyatlarni oshirish maqsadida, yo'naltiruvchi lineykaning yangi konstruksiyasi ishlab chiqish zarurati paydo bo'ladi va bu esa uning konstruksiyasiga bir qator o'zgartirishlar kiritishni taqozo qiladi. 10-rasmda yo'naltiruvchi lineykaning yangi konstruksiyasi keltirilgan bo'lib, bunda 1-zoldir prokatlash stani qopqog'i, 2-korpus, 3-ichki yo'naltiruvchi ariqchalar, 4-ko'ndalang ariqcha, 5-qo'zg'aluvchan to'siq, 6-elastik element, 7-tutqich, 8-tores qism ariqchasi, 9-ishchi qism, 10-bo'ylama qirralar, 11-ko'ndalang ariqcha.



10-rasm. Zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineykasining yangi konstruksiyasi

Zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineykasining yangi konstruksiyasini ishlab chiqish natijasida yeyilgan yo'naltiruvchi lineykani almashtirish jarayoni faqat uning ishchi qismini almashtirish imkoniyatini berdi. Bunda prokatlash staniga xizmat ko'rsatish vaqt sarfi va material sarfi kamaydi. Shu bilan birga, yo'naltiruvchi lineykani almashtirishga sarflanadigan ish kuchi ham sezilarli darajada kamaydi. Bu esa zoldir prokatlash stanining mahsuldorligini yanada oshirish va texnik xizmat ko'rsatishni yaxshilash imkonini berdi.

Dissertatsiyaning **“Zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineykasiga ta'sir etuvchi kuch omillarini aniqlash”** deb nomlangan to'rtinchi bobida zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineykasini mustahkamlikka tekshirish maqsadida, uning ishchi qismiga ta'sir etuvchi kuchlar va tayanchlaridagi reaksiya kuchlari aniqlandi. Natijada zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineykasini mustahkamlikka hisoblash imkoniyatlari yaratildi.

Prokatlash jarayonida metall xomashyo zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineykasi ishchi qismiga doimiy o'zgaruvchan kuchlar orqali ta'sir qiladi. Bu kuchlar prokatlash valoklari rebordalarining metall xomashyoga siqib ishlov berishi va buning natijasida siqilgan metall yo'naltiruvchi lineykaning ishchi qismiga ta'sir qilishi orqali ifodalanadi (11-rasm).

Yo'naltiruvchi lineykaning ishchi qismiga ta'sir etuvchi umumiy kuch uning shakl hosil qiluvchi va shaklga ishlov beruvchi qismlariga mos bo'lgan kuchlarning yig'indisi sifatida aniqlanadi:

$$P = P_{sh.h.q} + P_{sh.i.b}, \quad (9)$$

bunda $P_{sh.h.q}$ – yo'naltiruvchi lineykaning shakl hosil qiluvchi qismiga ta'sir etuvchi kuch, $P_{sh.i.b}$ – yo'naltiruvchi lineykaning shaklga ishlov beruvchi qismiga ta'sir etuvchi kuch.

Yo'naltiruvchi lineykalarning ishchi qismiga ta'sir etuvchi umumiy kuch tayanchlarga nisbatan yo'naltiruvchi lineykada egilish deformatsiyasini hosil qiladi. Buning natijasida yo'naltiruvchi lineykalarda normal va urinma kuchlanishlarni hosil qiladi. Tashqi kuchlar ta'sirida konstruksiyaning xavfsiz ishlashini ta'minlash maqsadida, ulardagi kuchlanishlarning eng katta qiymati oldindan belgilangan ma'lum chegaradan, ya'ni ruxsat etilgan me'yordan ortib ketmasligi kerak.

Eguvchi moment ta'sirida konstruksiyaning ko'ndalang kesim yuzasida hosil bo'ladigan normal kuchlanishning eng katta qiymati kesimning neytral o'qidan eng uzoqda joylashgan nuqtalarida hosil bo'ladi va neytral o'qdan eng uzoqda joylashgan tolalarning mustahkamligi normal kuchlanishlar bo'yicha ta'minlanadi:

$$\sigma_{max} = \frac{M_{max}}{W} \leq [\sigma_{eg}]. \quad (10)$$


Zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineykasining mustahkamligini hisoblashda, uning murakkab geometrik tavsiflari (statik moment, inersiya momenti, qarshilik momenti, inersiya radiusi) ni aniqlash maqsadga muvofiq. Kesimlar uchun qarshilik momentlarini hisoblash formulalaridan foydalanib, yo'naltiruvchi lineyka ko'ndalang kesimi bo'yicha umumiy qarshilik momenti aniqlandi.

Normal kuchlanishning eng katta qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\sigma_{max} = \frac{M_{max}(\varphi)}{W_{um}} = \frac{M(187^\circ)}{W_{um}} = 41,57 MPa. \quad (11)$$

Ko'rilayotgan masala uchun kuchlanishning ruxsat etilgan chegaraviy qiymati $[\sigma_{eg}] = 254,9729 MPa$ ekanligini inobatga olgan holda, zoldir prokatlash jarayonida yo'naltiruvchi lineyka ishchi qismiga ta'sir etuvchi kuchlar natijasida aniqlangan kuchlanishning qiymati yo'naltiruvchi lineykaning materialiga qo'yilgan ruxsat etilgan kuchlanishdan kichik ekanligi aniqlandi.

“O'zmetkombinat” AJ ning “Zoldir prokatlash bo'linmasi” da sinov-tajriba ishlari olib borildi. Olingan natijalar asosida, ZPS 80-120 stanida diametri 50 mm



11-rasm. Yo'naltiruvchi lineykalarning ishchi qismiga ta'sir etuvchi kuchlarni aniqlash sxemasi

bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Mahsulotning texnik darajasi, o'lchamlari va chegaraviy og'ishlarining mosligi, mexanik xossalari (qattiqligi) va sirtining yuzasi bo'yicha sifati tekshirildi va baholandi. Natijada ishlab chiqarilgan mahsulot 7524-2015 DSt ga mosligi aniqlandi.

XULOSA

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha "Diametri 50 mm bo'lgan zoldirlarni prokatlash uchun mo'ljallangan stanning yo'naltiruvchi lineykasini ishlab chiqish, parametrlarini asoslash orqali uning ish unumdorligini oshirish" mavzusidagi o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilardan iborat:

1. Maxsus prokatlash stanlarida qo'llaniladigan yo'naltiruvchi lineykalarning geometrik parametrlarini aniqlashning nazariy asoslari ishlab chiqildi. Buning natijasida prokatlash valoklarining burilish burchagi $0^{\circ} - 7^{\circ}$ oralig'ida o'zgarishini hisobga olgan holda, yo'naltiruvchi lineykaning ishchi qismi qalinligi va uzunligini tavsiflovchi matematik ifodalar ishlab chiqildi.
2. Yo'naltiruvchi lineykaning konstruktorlik - texnologik o'lchamlarini aniqlash maqsadida, uning geometrik parametrlarini tavsiflovchi matematik ifodalar kompyuterda *MathCAD* 15 dasturi yordamida tahlil qilindi va dastur ishlab chiqildi. Buning natijasida 7524-2015 DSt ga muvofiq diametri 50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarni ZPS 80-120 stanida prokatlash uchun zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineykasining konstruksiyasi ishlab chiqildi.
3. Zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineykasining yangi konstruksiyasi ishlab chiqildi. Buning natijasida yo'naltiruvchi lineykalarni tayyorlash uchun sarflanadigan metall sarfi 1,6-1,8 barobarga kamaydi, ishdan chiqqan yo'naltiruvchi lineykalarni almashtirish uchun vaqt sarfi 1,9-2 barobarga kamaydi.
4. 7524-2015 DSt bo'yicha diametri 50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarni prokatlash maqsadida ariqchalarining markazlari siljigan olti kirimli vintli kalibrli zoldir prokatlash valoklarini kalibrlash texnologiyasi ishlab chiqildi. Buning natijasida diametri 50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarni ishlab chiqarish unumdorligi 15-20 foizga ortdi.
5. Olti kirimli vintli kalibrli zoldir prokatlash valoklarini tayyorlash uchun profili nazariy asoslangan kulachoklarning matematik modeli ishlab chiqildi va ular asosida kulachoklarning namunalari tayyorlandi. Buning natijasida kulachoklarni tayyorlash mahalliyashtirildi.
6. Yo'naltiruvchi lineykaning ishchi qismiga ta'sir etuvchi kuch parametrlari nazariy asoslashlar orqali vintli kalibr uzunligiga bog'liq holda aniqlandi.
7. Olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar bo'yicha tayyorlangan yo'naltiruvchi lineyka mustahkamlikka tekshirildi. Buning natijasida yo'naltiruvchi lineyka va prokatlanayotgan xomashyo orasida hosil bo'ladigan hisobiy kuchlanish yo'naltiruvchi lineykaning materialiga qo'yilgan ruxsat etilgan kuchlanishdan kichik ekanligi ma'lum bo'ldi.

8. Olti kirimli vintli kalibrli zoldir prokatlash valoklari orqali 7524-2015 DSt bo'yicha diametri 50 mm bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarni prokatlash texnologiyasini ZPS 80-120 stanida ishlab chiqarishga joriy etish natijasida kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 2 000 000 000 so'mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.03.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

КАРИМОВА АНОРГУЛ РУЗИМОВНА

**РАЗРАБОТКА НАПРАВЛЯЮЩЕЙ ЛИНЕЙКИ СТАНА,
ПРЕДНАЗНАЧЕННОГО ДЛЯ ПРОКАТКИ ШАРОВ ДИАМЕТРОМ
50ММ, ПОВЫШЕНИЕ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ЗА СЧЕТ
ОБОСНОВАНИЯ ЕЁ ПАРАМЕТРОВ**

05.02.02– Теория механизмов и машин. Машиноведение и детали машин

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2024.3.PhD/Т4884.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете в г. Ташкенте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте (www.tdtu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Шахобутдинов Рустам Эркинбаевич доктор философии технических наук (PhD), доцент
Официальные оппоненты:	Алимухамедов Шавкат Пирмухамедович доктор технических наук, профессор Абдукаримов Абдусалом кандидат технических наук, доцент
Ведущая организация:	Наманганский государственный технический университет

Защита диссертации состоится «05» сентября 2025 года в 11⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.02.12.2019.Т.03.04 при Ташкентском государственном техническом университете. Адрес: 100095, г.Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: (+99871) 246-46-00, факс: 227-10-32, e-mail: tadqiqotchi@tdtu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета (зарегистрировано номером №___). (Адрес 100095, г.Ташкент, ул. Университетская, 2, Тел.: (99871) 246-03-41).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 г.
(реестр протокола рассылки № от «__» _____ 2025г).

К.А. Каримов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

Ш.Б. Ташбулатов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н. (DSc)

А.А. Мухиддинов
Председатель Научного семинара при Научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н. профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире повышение износостойкости помольных шаров, используемых для измельчения руды и горных пород, повышение эффективности работы прокатных валков и направляющих линеек шаропрокатного стана, а также разработка ресурсосберегающих технологий имеет особое значение. Также с целью повышения производительности прокатки шаров различных диаметров одними из важных задач являются изготовление кулачков для нарезания многозаходных винтовых калибров и разработка конструкции рабочей части направляющих линеек. В связи с этим в ряде стран мира особое внимание уделяется задачам по производству шаров методом прокатки. В частности, в США, Германии, Франции, Италии, Индии, России и на Украине ведутся работы по совершенствованию производства многозаходных винтовых калибров и соответствующих им рабочих частей направляющих линеек, проводятся широкие исследования по созданию энерго- и ресурсосберегающих технологий для их производства.

В мире в области совершенствования и развития современной машиностроительной отрасли, большое значение имеет создание современной и экономичной техники и передовой технологии для всех отраслей производства, рациональное и эффективное использование природных ресурсов, внедрение их в производство, решение актуальных научных и практических задач и одновременно проведение фундаментальных научных исследований. В этом направлении, важную актуальность приобретает применение технологий, обеспечивающих энерго- и ресурсоэффективность при производстве шаров методом прокатки. При этом приоритетным направлениям считаются исследования по проектированию отдельных специальных рабочих звеньев прокатного стана, применяемых при прокатке шаров и разработке математических моделей, с целью повышения их производительности. Также одной из важных задач является разработка теоретических основ энерго- и ресурсосберегающих технологий и методов их эффективного использования.

В нашей республике проводятся комплексные научно-исследовательские работы и достигнуты определенные результаты по совершенствованию технологии производства стальных мелющих шаров, применяемых для дробления и переработки руд и горнодобывающей продукции. В связи с этим особое внимание уделяется повышению эффективности оборудования и технологий за счет модернизации промышленности нашей республики таких показателей, как конкурентоспособность, энергосбережение и экология. В связи с этим Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» определены задачи по «...обеспечению ускоренного развития национальной экономики и

высоких темпов роста»². Учитывая важность задач по разработке и внедрению новых, а также повышению производительности существующих технологий проводятся масштабные научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы по изучению вопросов и теоретических методов, связанных с проектированием шаропрокатных валков со сверхзаходными винтовыми калибрами, применяемых в производстве стальных мелющих шаров, и разработке новых конструкций направляющих линеек шаропрокатных станков.

